

“SIYRAT ILMI”NING NAZARIY ASOSLARI

Abdulbosit Qobulov

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent

islom institut “Qur’on ilmlari”

kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada “siyrat ilmi”ning shakllanishi, nazariy asoslari va tarixiy rivoji keng yoritilgan. Unda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam siyratining Islom ilmlari tizimidagi o‘rni, sahobalar davridan boshlab siyratga bo‘lgan e‘tibor, dastlabki siyrat asarlari hamda ularning janr va yo‘nalishlari ilmiy tahlil qilinadi. Xususan, mag‘oziy, shamoyil, xaso‘is, mavlid va na‘t kabi siyratga oid adabiyot turlari, ularning mazmuniy va uslubiy xususiyatlari mufassal bayon etilgan.

Maqolada mavlid asarlarining paydo bo‘lishi, tarixiy taraqqiyoti, ularning ilmiy va adabiy uslublari, shuningdek, muhaddislar, faqihlar va adiblar tomonidan yaratilgan mavlidlarning tasnifi keltiriladi. Mavlidni nishonlash masalasidagi ixtiloflar, uni qo‘llab-quvvatlovchi va inkor etuvchi qarashlar xolisona yoritilib, ahli sunna ulamolarining aksariyati tomonidan mavlidning joiz va mustahab amal sifatida baholanganligi asoslab beriladi.

Shuningdek, maqolada mavlid marosimlaridan ko‘zlangan maqsadlar — Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga muhabbatni kuchaytirish, siyratni ommaga yetkazish, yosh avlodni axloqan tarbiyalash, sunnatga ergashishni jonlantirish kabi jihatlar izchil tahlil qilinadi. Mavlidni o‘tkazish odoblari, unda rioya qilinishi lozim bo‘lgan shar‘iy me‘yorlar hamda yurtimiz ulamolari amaliyotining o‘ziga xos jihatlari alohida ta‘kidlanadi.

Kalit so‘zlar: siyrat ilmi, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam, siyrat va sunnat, shamoyil, xaso‘is, mavlid, mavlid adabiyoti, hadis va siyrat manbalari, sahobalar va tobe‘inlar, siyrat asarlari tasnifi, mavlid marosimlari, Rasulullohga muhabbat, salavot, islomiy an‘ana, bid‘at va joizlik masalasi, ma‘rifiy-ma‘naviy tarbiya, sunnatga ergashish.

Introduction

Matn qismi:

Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning siyratlari (hayotlari tarixi) shakli, tamoyillari va axloq odoblari asrlar osha insoniyatni o‘ziga jalb qilib keldi. U zot sollallohu alayhi vasallamni ko‘rish baxtiga musharraf bo‘lgan insonlar u zotga mahliyo bolib qolar, biroz gaplashib muomala qilgach, go‘zal axloq-odoblarining asiriga aylananar edi. Xususan u zotning Payg‘ambar qilib yuborilganlaridan keyingi hayotlari do‘stu dushmanining ko‘z o‘ngida, e‘tiborida bo‘ldi. Musulmonlar u zotdek yashash, kofirlar esa ayb topish uchun u zotning hayotlarini uzluksiz kuzatib boradi. Oxir-oqibat u zotga erishganlar kuchib, baxt-saodatga erishdilar, ayb izlaganlar noumid bo‘lib, saodatdan mahrum bo‘ldilar. Musulmonlar u zotdek yashash, kofirlar esa ayb

topish uchun u zotning hayotlarini uzluksiz kuzatib boradi. Oxir-oqibat u zotga erishganlar kuchib, baxt-saodatga erishdilar, ayb izlaganlar noumid bo'lib, saodatdan mahrum bo'ldilar.¹

Bashariyat tarixida birorta insonning hayoti rasululloh sollallohu alayhi vasallamning hayotlarni kabi to'laligicha o'rganilmagan. U zot alayhissalomning yurish-turishlari, yeb-ichishlari, muomala-munosabatlari, barcha xatti-harakatlari ochiq-oydin, hammaning ko'z oldida va e'tiborida edi. U insonning har bir soatlari har bir daqiqalar ko'pchilik tomonidan o'rganilar, og'izlaridan chiqqan har bir so'z yodlab borilar edi. Masjiddagi, ko'cha-ko'ydagi hayotlari, odamlar bilan bo'lgan muomala-munosabatlari sahobai kiromlar, uydagi xollari esa onalarimiz tarafidan o'rganilib, ummatga yetkazildi. Zero bularning barchasi bir bo'lib, ilohiy dinni tashkil qilar edi. Mana shu ma'noda Islom ummati anashu saodat asridan boshlab Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning sunnat va siyratlarini sinchkovlik bilan o'rganib, unga ergashib, bilganlarini o'zlaridan keyingi avlodga yetkazib kelganlar.

Oxir zamon Payg'ambariga hamsuhbat bo'lish baxtiga musharraf bolgan sahobai kiromlar u zotni tilga olganlarida ko'zlariga yosh qalqib, maqtashdan charchamas, gohida maqtashga so'z topolmay, "U zotdan oldin ham, keyin ham o'xshashlarini ko'rmadik" deyishar edi. O'sha davrning so'z ustalari esa u zotni ko'rganda ilhomi jo'shib she'r bitishga kirishib ketar edi.

Sahobalarning so'ngilari yashab, tobe'inlar davri boshlangan kezlari hadislar ommaviy va rasmiy xatga tushiriladi boshlaganda ham ilk bitiklar aynan Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning siyratlari borasida boldi. Dastavval bor ma'lumotlarni to'plab, qayd qilib borildi. Asta-sekin islom tarixidagi birinchi asarlar vujudga keldi. Muhammad ibn Ishoq (vaf.-xij.151 yil) va Muhammad ibn Umar Voqidiy (vaf.xij. 207 yil) o'zlarining siyrat asarlarini, Muhammad ibn Sa'd Basriy (vaf.xij.239yil) o'zining "Tabaqot"ini yaratdi.

Siyrat asarlari ko'payar ekan, ularning ichidan siyratning ma'lum bir jabhasida qaratilgan maxsus kitoblar paydo bo'la boshladi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning shijoat quvvatlariga, ul zot ishtirok etgan g'azodlarga ko'proq e'tibor berib siyratini shu tarafdama etgan asarlar "Mag'oziy" (G'azotlar") deb ataldi. (Ibn Ishaoq, Ibn Uqba, Ibn Shihob Zuhriy, Voqidiy, Urva ibn Zubayr, Yunus ibn Bukayr, Sa'id ibn Yahyolarning asarlari kabi).

Yana bir tur siyrat asarlari Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning xususiyatlariga bag'ishlangan bo'lib, ular "Al-Xasois"- "Rasulullohning xususiyatlari" degan oldi. (Misol uchun Sutunning "Al-Xasois" asari).²

Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning asosan tashqi ko'rinishlariga oid ma'lumotlarni o'z ichiga jamlagan siyrat asarlari esa "Ash-Shamoil" deb nomlanadi (Abu Iyso Termiziyning "Ash-Shamoilul Muhammadiya" si kabi). Shu jumladan, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning tavalludlarini markaziy nuqta qilib olib, ana shu odam olamshumul hodisa atrofidagi ma'lumotlar haqida so'z yuritishga urg'u bergan siyrat turkumi ham vujudga keldi va ular "mavlid" ya'ni "tavallud oni" yoki "Mavludin-Nabiy" – "Nabiyning tavallud oni" deb ataldi. Aslida boshqa siyrat kitoblarda ham Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning tavalludlari va ularga bog'liq hodisalar haqida so'z boradi, ammo mavlid asarlarida ulardan farqli ravishda, ushbu nuqta alohida yoritilgan va da'vat ishlari, g'azotlar fatihlar haqida tafsilotlar kiritilmagan.

¹ Hasanxon Yaxyo Abdulmajid.Mavlud.Sayyid Ja'far Ibn Hasan Barzanjan.-T.: "HILOL-NASHIR", 2022.

² Hasanxon Yaxyo Abdulmajid.Mavlud.Sayyid Ja'far Ibn Hasan Barzanjan.-T.: "HILOL-NASHIR", 2022.

Mavlud asarlaridan maqsad, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning shaxsiyatlari bilan qisqaroq tanishtirish, hayolda gavdalantirish va u zotning tavalludlari ulkan hodisa, insoniyat uchun buyuk ne`mat ekanini uqtirishdir. Mavludlarda asosan Nabiy sollallohu alayhi vasallamning hayotlarining ilk bosqichlarini yoritishga alohida e`tibor berilga. Ularda Nabiyulloh sollallohu alayhi vasallamning axloqlari, mehribonliklari va boshqa sifatlarini ta`riflashga harakat qilingan. Ayrim mavlid asarlarida buni Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning hayotlariga bog`liq birgina hikoyasi tasvirlansa, boshqasida u zotning shaklu shamoyillari mo`jizalari batafsil vasf qilingan. Vaqt o`tishi bilan mavlid asarlair ham takomillashib, zamon talabiga ko`ra ortib borgan.

Hijriy o`rta asrlarga kelib, Islom olamida Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning tavallud kuni va oylarilani nishonlash va siyratini organish mavsumi etish maqsadida mavlid yig`inlari tashkil qilinib, ularda xalqqa asarlaridan o`qib eshittirish yo`lga qo`yildi.

Bu hol mavlid asarlarining adabiy-ilmiy turlari paydo bo`lishiga va ko`payishiga turtki boldi. Asta-sekin ushbu davlat yig`inlariga mos mavlid asarlari vujudga keldi. Ularda kopincha Rasululloh solallohu alayhi vasallamning siyratlari va majlisida o`qib o`tirsa boladigan darajadagi qisqa satrlarda ifoda etilar va mavlid yig`inlaridagi ruhiyatdan kelib chiqib siyrat badiiy uslubda, adabiy bo`yoqda bayon qilgan edi.³

Nabiy sollallohu alayhi vasallamning siyratlari hamisha zavq ahlining beqiyos ijodi uchun bitmas tunganmas ilhom manbai bo`lib kelgan. U zot sollallohu alayhi vasallamning hayotlari bilan tanishgan, siyratlarini oqib eshitgan irod ahli beixtiyor qalam tebratishga majbur bo`lib qolardi.

Bundan hatto boshqa din vakillari ham mustasno bo`lmagan. Bu borada ham Rasululloh solallohu alayhi vasallamga teng keladigani yo`q. Bashariyat tarixida hech bir inson haqida Nabiy sollallohu alayhi vasallamga atab yozilganchalik ko`p va xo`p maqtov she`rlar bitilmagan.

Hatto jahon adabiyotida Rasululloh solallohu alayhi vasallamning maqtovlariga bag`ishlangan alohida janr-na`t janri yuzaga kelgan. Na`tlarda ham Rasululloh solallohu alayhi vasallamning siyratlari haqida so`z borishi tabiiydir. Ana shunday na`tlar ichida mavlid marosimlarda o`qiladigan, shunga bag`ishlanganlari ham mavlid asarlari qatoridan joy olgan. Ayrim siyrat kitoblarida, mavlid asarlarida zaif, to`qima ma`lumotlar uchrab qolganini ko`rgan ulamolimiz aynan shu nuqtani davolashga qaratilgan, sof siratni ilmiy asosda bayon etadigan mavlid asarlari ham yozishgan. Katta hofizlar, allomalar, muhaddislarning mavludlari mana shu maqsadda bitilgan, desak ham bo`ladi. Ular mavlid asarlaridan joy olib qolgan, ammo aslida Rasululloh solallohu alayhi vasallamga tuhmat bo`lgan, shariatga xilof bo`lgan ma`lumotlarning noto`g`riligiga alohida urg`u berib o`tishadi. Mavlud asarlarini quyidagi turkumlarga ajratish mumkin:

1. Muhaddislar uslubida, ya`ni har bir xabarning sanadini keltirib, roviyiga nisbatan berib tuzilgan mavludlar . Hijriy uchinchi, to`rtinchi asrlarda bitilgan mavludlar asosan shu usulida yozilgan. Abu Abdulloh Muhammad ibn Oiz Quraysh (vaf. Hij. 223 yil) va Abu Bakir Ahmad ibn Umar Nabil Shayboniy (vaf. Hij. 287 yil) kabi muqaddim ulamolarning mavlid asarlari shu

³ Muhammad ibn Iyso Termiziy. Shamoili Muhammadiya. Muassasatul qutubiyus-saqafiya. –Bayrut.Hij. 1412.

jumladan. Bu asarlarning mualliflari o'zlarini keltirgan har bir hadis roviylarining o'zidan boshlab, birinchi roviygacha bo'lgan toliq silsilasini keltiradilar.

2. Muhaddislar uslubida, ya'ni har bir xabarning sanadini keltirish bilan birga, ularning ilmiy-qiyosiy tahlil qilishga e'tibor berib, shu bilan birga, mavzuga doir barcha ma'lumotlarni jamlashga harakat qilib tuzilgan mavlidlar. Misol uchun Abul Xattob ibn Dihya Qalbiyning (vaf.hij. 633) "At-Tanvir fii mavlidi Sirojil Munir" kitobi, Alloma Abul Abbos Azafiyning "Ad-Durrul munazzam fii mavlidun-Nabiyyil Mu'azzam" nomli asari. Bu turkumdagi ma'lumotlarda mualliflar xabarlar va ularni naql qilgan roviylar ustidan bahs olib borishadi, xabarlarining sahih va zaiflik darajalarini bayon qilishadi va ishonchsiz xabarlarni ko'rsatib otishadi.⁴

3. Hadis va xabarlarning manbalarini ko'rsatib uning rivoyat qilgan sahobaning ismini aytish bilan cheklanish, ba'zan hadislarining ma'nosini berish usulida bitilgan mavludlar. Misol uchun Hofiz ibn Kasrning "Zikru mavlidun-Nabiy va rido'hi" nomli mavlidi. Unda muallif Imom Muslim Abu Qatodadan rivoyat qiladi, "Imom Buxoriy va falonchidan naql qiladi" deb xabarlarni keltiradi.

4. Adabiy uslubdagi mavludlar. Keyingi asrlarda bitilgan mavlid asarlarining aksariyati mana shu uslubida.

Ularda Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning mavludlari va unga bogliq xabarlar badiiy bo'yoqlarda, balog'atli uslubda hikoya qilinadi. Ayrimlarida hadislar ham keltiriladi. Ularda usul va tartib bir hil bo'lmay, turlicha, har birining o'ziga xos. Biz o'rganayotgan Barzanjiy rahmatullohi alayhning mavlidi, Shayx Muhammad Ja'far Kattoniyning "Is'aafurrog'ibish-sha'ik" nomli asari eng ko'zga ko'rinadiganlaridandir.

5. Nazmda bitilgan mavludlar. Bu turdagi mavludlar ichida ilmiy va adabiy mavlidlar singari, Nabiy sollallohu alayhi vasallamning siyratlarini davriy tartib bilan yoritadiganlari ham bor. Misol uchun Abu Ishoq Ibrohim ibn Abu Bakir Voqishiyning "Nazmul munazzam fii mavlidun-Nabiyyil Muazzam" asari. Nozim unda Abul Abbos Azarfiyning yuqorida zikr qilingan mavlud asarini nazimga solib, 185 baytida bayon etadi. Shuningdek Muhammad ibn Solim ibn Hofiz rahmatullohi alayh Hofiz ibn Kasrning mavlidini, Zaynulobiddin ibn Muhammad Hodiy Barzanjiy bobosi Ja'far Barzanjiyning mavlidini nazimga solgan. Bularidan tashqari, mustaqil ravishda bitilgan nazmiy mavzular ham bor. Mavlid yiginlarida o'qiladigan va ushbu marosimlarga atab yozilgan bir qator she'riy qasidalar, na'tlar ham nazmiy mavzular turkumiga kirishini alohida eslatib o'tish joiz. Bu tur mavlidi asarlarining boshqa na'tlardan asosiy farqi shundaki, ularda faqat maqtov va olqishlar bilan cheklanilmay, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning siyratlari haqida ma'lumot berishga ham e'tibor beriladi. Oddiy na'tlarda esa uslub aksincha boladi.⁵

Mavlid asarlari siyratga doir boshqa adabiyotlardan bir necha jihatlari bilan farqlanadi:

- 1) Mavlid asarlarida siyrat qisqacha aytib o'tiladi, tafsilotlarga kirishilmaydi.
- 2) Mavlid asarlarida markaziy nuqta Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning tavalludlari boladi va asosan ushbu hodisa atrofidagi ma'lumotlar bilan tanishtiriladi.

⁴ Hasanxon Yaxyo Abdulmajid.Mavlud.Sayyid Ja'far Ibn Hasan Barzanjan.-T.: "HILOL-NASHIR", 2022.

⁵ Hasanxon Yaxyo Abdulmajid.Mavlud.Sayyid Ja'far Ibn Hasan Barzanjan.-T.: "HILOL-NASHIR", 2022.

3) Aksar mavlud asarlarida, xususan, keyingi asrlarga xoslarida badiiy uslub ustuvor bolgan. Ular shavq va hayajonli soʻzlarga boy boladi. Oddiy gaplardan qochib, koʻproq ehtirosni junbushga keltiradigan maʼlumotlar beriladi. Bunda xabar biroz mubolagʻali yoki zaifroq bolishi ham mumkin, chunki ayrim ulamolar tarixiy voqealardan modomiki aqiyda va sharʻiy hukmga bogʻliq boʻlmasa, hadislardagidek sahikhlik boʻlishini shart qilmaydi va toʻqima bolmagan, shariat ruhiga zid boʻlmagan xabarlarini naqil qilishni joriz sanashadi. Shu bois mavlid kitoblarida mutaxassislar tomonidan zaif deb bilingan gaplar ham koʻp uchraydi. Ular bor haqiqat shu, degan maʼnoda emas, balki shunday gaplar ham bor, degan mazmunda aytilgan, deyish ham mumkin. Shunga koʻra, ayrim mavlid asarlarini sof ilmiy-tadqiqot asarlari emas, balki siyrat haqidagi badiiy asarlar deyish mumkin.

4) Ayrim mavlid asarlari yod olishga, bir oʻtirishda oʻqib chiqishga mos hajmda bitilgan. Bu turdagi mavlidlarni siyrat ilmi uchun bir nav matn vazifasini oʻtashini ham taxmin qilish mumkin.⁶

Mavludni nishonlash birinchi boʻlib aynan kimdan chiqqani haqida aniq maʼlumot yoʻq, taxmin qilish mumkinki, bu amal dastavval ommaviy ravishda nishonlanadigan marosim sifatida dunyoga kelmagan, avvaliga ayr kishilar ushbu mavlid oyida oʻzaro, torro doirada Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning tavallud kunlariga alohida eʼtibor berib, uni xursandchilik bilan oʻtkazishga, shu kunda Nabiy sollallohu alayhi vasallamni koʻprok eslashga harakat qilishgan va bu holat koʻpchilikka ijobiy taʼsir qilishi natijasida, asta-sekin ommalishib borganni. Keyinroq mazkur amal ommaviy tarzda, davlat miqyosida oʻtkaziladigan tadbir tusini olgandi. Magʻriblik tadqiqotchi ustoz Abbos Jaroriyning taʼkidlashicha, Abbos xalifalar ichida ham tor doirada boʻlsa-ha, mavlid kunini nishonlash boʻlgan. Xalifalar mavlid kuni hadyalar ulashib, xursandchilik izhor qilishgan.

Shuningdek, alaviylardada ham mavlid kunini nishonlash odati boʻlgan. Andalusiyalik sayyoh Ibn Jubayrning aytishicha, hijriy 579, milodiy 1 183 sanada Makkayi Mukarramada Rabiʼyul avval oyining dushanbasida Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning tavallud topgan uylarini va boshqa yodgorliklarini ziyorat qilishib uchun ochib qoʻyishar, odamlar yoppasiga kirib, joyni ziyorat qilishar ekan, Abu Abbos Azafiy (vaf, xij, 633 yil, mil, 1235) yil) oʻzining "Ad-Durrul muj Nazzom fiya Mavlidi an-Nabiyyil muʼazzom" nomli mavlid asarida keltirilishicha, oʻsha davrda Makki Mukarramada Mavlid kuni rasman dam kuni hisoblangan ekan, Muallif ushbu asari orqali kishilarni mavlidni nishonlashga targʻib qilgan va buning oʻsha davrdagi zarurati haqida qator fikrlarni bildirgan. Jumladan, Andalusiyada koʻpchilik musulmonlarning bilib-bilmagan xolda nasroniylarning bayramlariga aralashib qolayotganlarini, bu ularning eʼtiqodlariga zarar etkazishini va muboh ish bilan boʻlsa-da, bu xatarning oldini olish lozimligini taʼkidlagan.⁷

Mumkinki, hijriy oʻsha asrlarda Islom olamida tasavvuf hadallashganning ulamolaring faoliyati. Koʻprik tomonidan hosil qilingan mavlid yigʻinlari kamdan-kam hollarda tasavvufni ifodalaydi muqim oʻrin tutgan. Mazkur podshoh-Muzaffaruddin ham tasavvuf ahliga muxlis, oʻzi ham shu sulukni tutgan, zikr halqalarida faol inson boʻlgan. Umuman olganda, soʻfiylik ulamolari koʻprigining obroʻ-eʼtiborini berganlar, Alloh va uning Rasuliga sevgi izhor qilishda

⁶ Jaloliddin Abdurrahmon Suyutiy.Xusnul maqsid fii amalil mavlid.Bayrut.1985 yil

⁷ Jaloliddin Abdurrahmon Suyutiy.Xusnul maqsid fii amalil mavlid.Bayrut.1985 yil

hammaga namuna bo'lganlar va qalblar uta hassos, shavqli bo'lganidan mavlid marosimlariga alohida e'tibor berishgan.

Xulosa qilib aytganda, mavludni nishonlash qandaydir johil, nodon insonlar tomonidan o'ylab topilgan o'yin kulgisi marosimi emas, balki Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning muhabbatlari qalblarida jo'sh urgan, olim, solih, taqvodor kishilar tomonidan joriy qilingan. To'g'ri, mavlidga ayrim adashgan toifalar ham ko'p e'tibor berishgan, lekin bu faqat ular yo'lga kuygan ish emas. Balki ahli sunna ulamolarning ko'pchiligi mavlidni joiz, mustahab amal degan va uni o'tkazishda jonbozlik ko'rsatgan.

Mavlid faqatgina tutilgan kunni nishonlash ma'nosida yuzaga kelmagan.

Balki Nabiy sollallohu alayhi vasallamga oshiq qalblarning ushbu kunlarda u zot sollallohu alayhi vasallamni ko'proq yodga olishlari, u zotning tavalludlarini esga olganda o'zlarida shodlik his etishlari, shu kunda u zot alayhissalomning tavalludlarining xursandchiligi tasavvurlarida gavdalanishi, u zot sollallohu alayhi vasallamga bo'lgan sog'inch turtki bo'lgan. Bu aslida insoniy tabiatning in'ikosidir. Misol uchun, inson utgan yaqin kishilari, ota-onasi, farzandi jigarbandlarini ularga bog'liq bo'lgan kunlarda, xususan, tavallud yo vafot kunlarida alohida xotirlaydi, ularning yaxshiliklarini yodga olib, o'zini bir zum ular bilan yana birga bo'lgandek his etadi, ular bilan o'tkazgan eng shirin damlarini esga oladi, yodgorliklarni tomosha qilib, ko'zlariga surtadi, shunday qilib, biroz bo'lsa-da, sog'inchini qondiradi, bu oddiy insoniy odat, tabiiy ehtiyojdir, buni bid'at deyish umuman to'g'ri bo'lmaydi, Mavlid yig'inlari va ularni o'tkazgan kishilar bilan tanishsangiz, mavlid asarlarini o'rgansangiz, ularda ham xuddi ana shunday yuksak bir kayfiyatini his etasiz. Shuning uchun ham mavlidni nishonlashda ko'proq ahli zavq kishilar, qalblari qasos bo'lgan zotlar, tasavvuf mashoyixlari jonbozlik ko'rsatishgan.⁸

Xar narsaning o'z mavsumi bo'ladi. Misol uchun, musulmonlar Qur'onni doimo o'qib o'rganib yuradilar Qur'on nozil bo'lgan oy Ramazon oyida esa Qur'onga alohida extimom beradilar. Bu oyda Qur'onga har qachongidan ham ko'proq bog'lanadilar, bu boshqa oylarda Qur'onga e'tibor bermasalar bo'laveradi, degani emas. Balki shu oyda bir yilga yetgudek zahira to'plab olishlari uchun bir tadbirdir. Ana shunday qilib, Qur'onga bo'lgan muhabbatlari, qiziqishlari, ahdlari va bu boradagi bilimlarini har yili yangilab oladilar. Bu Shori' O'zi joriy qilgan ishdir. Mavlid oyi ham ana shunday bir mavsum, siyratni o'rganish mavsumi, xolos. Buning uchun eng munosib oy ushbu mavlid oyi bo'lishiga hech kim shubha qilmasa kerak.

Shuningdek, odatda mavlid, ayrim kishilar o'ylaganidek, boshqa din vakillariga ergashib emas, balki ularga muqobil ravishda amalga oshirilgan.

Musulmon yoshlarning axloqlarini, rag'batlarini boshqa din vakillarining bayramlari ta'siridan asrash maqsad qilingan. Ikkinchidan, bunday ishlar faqat taqliddan kelib chiqmaydi, balki ichki his-tuyg'u turtkisi bilan ham bo'ladi. Xususan, biz nazarda tutgan mavlidni joriy qilgan zotlar ulug' olim kishilar, taqvodor insonlar bo'lgan, ular boshqalarga taqlid qilishdan eng uzoq odamlar bo'lishgan, o'zga din vakillariga taqlid qilish u yoqda tursin, xilof ish tutishni o'zlarining majburiyatlari deb bilishgan va shu yo'sinda ish ko'rishgan.

⁸ Hofiz Abu Fazl Abdurrahim ibn Husayn Zayniddin Iroqiy. Al Mavlidul haniy fil mavlidis-saniy. U haqida 2009 yilda "Dorus-salom" matbaasida chop etilgan nashrining kirish qismi nashriga tayyorlovchi Umar ibn Arabiy A'miriy tarafidan berilgan ma'lumotlar.

Shu bilan birga, mavlidni ma'lum bir oyat yoki hadisning dalolatidan kelib chiqib, shar'an talab qilingan amal shaklida emas, balki shariat sukut qilgan, ya'ni buyurmagan yoki qaytarmagan odat, tadbir sifatida yo'lga qo'yganlar. Keyin bunga qarshi chiqqanlarga uning joizligini, balki mandubligini qo'llovchi dalillar bilan raddiya bildirganlar.

Mavlid haqidagi xiloflar oz bo'lsa-da, ayrim kishilar o'rtasida hanuz bor. Mavlid haqiqatan ham bid'atmik yoki joiz, savobli amalmikin, degan ma'noda ikkilanib yurganlar yanada ko'proq topiladi. Mavlidni qo'llovchilar ham, uni inkor etuvchilar ham o'zlarining dalillarini keltirishda davom etaveradilar. Lekin ko'p holatlarda ikki taraf ham bir-birining dalillaridan qoniqmaydi. Natijada o'rtadagi xilof borgan sari chuqurlashib, chigallashib boraveradi. Shuning uchun ham mavlid haqidagi tortishuvlar asrlar osha bir to'xtamga kelmagan. Ammo xolis o'rganilsa, mavlidni yoqlovchilar qadimdan ko'pchilikni tashkil qilib kelgan va ularning dalillari omma musulmonlarni qoniqtirgan. Shuning uchun ham ayrim ulamolar: "Mavludning joizligiga jumxur ulamolar ittifoq bo'lganlar", deyishadi. Xar qalay, musulmonlar o'rtasida mavlidni yoqlovchilar asosiy qismni tashkil qilib kelgan. Hatto bugungi kunda ham mavludga qarshi kishilar har qachongidan ko'p bo'lsa-da, baribir ular mavlidni qo'llovchilar oldida juda ham ozchilikni tashkil qiladi.⁹

Mavlid qilishning o'ziga yarasha shar'iy dalillari bor, asoslari bor va ko'plab manfaatlari bor. Musulmon ummati tarkiban ming yildan buyon uni nishonlab kelmoqda. Islom ummatining tayanchi bo'lgan qator allomalar uni yaxshi amal sanashgan.

Xususan, bizda barcha ulamolarimiz mavlid qilishni targ'ib etib, o'zlari ham bunday marosimlarni uyushtirib kelganlar. Bugungi kunda musulmonlar diniy idorasi rahbariyati ham, marhum ustozimiz Shayx Muhammad Sodiq hazratlari va boshqa ulamolarimiz ham mavlid qilishni yoqlaydilar. Xalqimizda bu ish kadimdan an'anaga aylangan. Bunga qarshi yurib, fitna chiqarish hech qanaqasiga oqlanmaydi, dinu diyonatga zarracha ham foyda keltirmaydi.

Ulamolarimiz: "Ibn Mas'ud roziyallohu anhone: "musulmonlar yaxshi sanagan narsa Allonning nazdida ham yaxshidir", degan so'zlari aynan mavlidga mos tushadi", deydilar. Nima bo'lganda ham, biz ko'pchilikning, jumladan, yurtimiz ulamolarining fikrlarini ushlab bilan cheklanib, ixtilofga o'rin bermasligimiz har jihatdan lozimdir. Zero, mavliddan ko'zlangan maqsadlarga erishishga musulmonlar bugun har doimgidan ko'ra ko'proq muxtojdirlar. Mavliddan ko'zlangan maqsadlar.

Mavlid marosimlarini tashkil qilishdan asosan kuyidagi maqsadlar ko'zda tutilgan:

1. Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning dunyoga kelganliklarining shodligini, suyunchisini izhor qilish. Ha, bu tavallud oddiy tavallud emas edi. Bu tavallud haqida avvalgi samoviy kitoblar bashorat bergan edi. Ushbu tavalludning ahamiyatining in'ikosi o'laroq, bu muborak soatda dunyoda ko'plab g'ayrioddiy ishlar sodir bo'lgan edi. Butun borliq uchun rahmat kelgan edi, hidoyat tavallud topgandi.

⁹ Hofiz Abu Fazl Abdurrahim ibn Husayn Zayniddin Iroqiy. Al Mavlidul hanyi fil mavlidis-saniy. U haqida 2009 yilda "Dorus-salom" matbaasida chop etilgan nashrining kirish qismi nashirga tayyorlovchi Umar ibn Arabiy A'miriy tarafidan berilgan ma'lumotlar.

2. Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning siyratlarini balogʻatli, fasohatli soʻzlar bilan, yengil, ommabop uslubda koʻpchilikka yetkazish. Shu bois, mavlid ishlari koʻproq sheʼriy, badiiy uslubda yozilgan chunki sheʼrda, badiiy uslubda oʻzgacha taʼsir bor.¹⁰

Shu bilan birga, siyratni oʻrganishga qaratilgan mavlid asarlarida mavzuni qisqacha, ommabop shaklda berishga ham harakat qilingan.

3. Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga koʻplashib va koʻproq salavot aytish oʻrgatiladi. Shuning uchun ham mavlid asarlarida har oʻrinda salavot aytish oʻrgatiladi. Salavotning fazilati esa cheksizdir.

Alloh taolo siz bilan biz moʻmin-musulmonlarni Nabiy sollallohu alayhi vasallamga salavot aytishga buyuradi: "Albatta, Alloh va uning farishtalari Nabiga salavot aytadi. Hoy iymon keltirganlar! Sizlar ham u zotga salavot ayting va bardavom salom yoʻllang " (azhob surasi, 56-oyat).

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: " kim menga bitta salavot aytsa, Alloh unga oʻnta salavot aytadi, oʻnta gunohini uchiradi", deganlar. Bu haqida kelgan hadislar juda ham koʻp.

4. Xalkni Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga muhabbat qilishga oʻrgatish, ularning qalblariga

Nabiy sollallohu alayhi vasallamga muhabbat qilish ruhini ulashish, dillarida shu tuygʻuni uygʻotish, kuchaytrish, u zotga boʻlgan sevgini qayrash, sayqallash.

Shundayin ilmlar va malakalar borki, ularni sahifalardan topib boʻlmaydi, ular faqat qalbdan qalbgga koʻchadi, deyishadi ulamolar. Muhabbat ham ana shundayin Ilmlardan, tuygʻulardan hisoblanadi. Allohga, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga muhabbatin kishilar bilan birga boʻlsangiz, sizning ham qalbingizga shu muhabbat tushadi, qayraladi, Shuning uchun ham hadisi shariflarda solihlar bilan birga oʻtirish tartib qilinadi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga boʻlgan muhabbat vujudlariga sigʻmay ketgan, u zotga boʻlgan shavqlari joʻsh urib turgan zotlarning suhbatlarida boʻlish, xususan, ana shunday yuksak maqomga chiqqan holatlarida hamnafas boʻlish har qanday qalbi ochiq, niyati pok insonga juda ham yuqori ruhiy quvvat baxsh etadi. Mavlid marosimlarida peshvo boʻlgan zotlarning koʻplarida mana shu xislatlar mujassam boʻlgan. Ularning yigʻinlarida qatnashgan kishilar juda ham koʻp bahralar bilan qaytganlar.¹¹

Mavlid marosimlarida qilinadigan suhbatlar, uziladigan asarlar, aytiladigan naʼtlar ham aynan shu maqsadni roʻyobga chiqarishga xizmat qilgan va shunday boʻlishi lozim. Mavludda qatnashgan kishilarning Rasululloh sollallohu alayhi vasallam haqlarida bilimlari kengaysin, u zotni yaxshiroq tanisin, bir suz bilan aytganda, mavliddan keyingi holatlari oldingisidan yaxshiroq, yuqoriroq boʻlsin.

5. Kishilarni, xususan, yosh avlodni Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga muhabbatli qilib tarbiyalash.

Mavlid marosimlari yosh bolalarda ham katta qiziqish uygʻotgan, ushbu yigʻinlarda oʻzlarining ota-onalari, kattalarini sollallohu vasallamga muhabbatli holda koʻrish yoshlarda katta taassurot qoldiradi, xususan, ushbu majlisdagi zikrlar, salavotlar, suhbatlar barcha qatnashuvchilar qatori, yoshlarning ham qalbida sevimli Rasulimiz sollallohu alayhi vasallamga nisbatan

¹⁰ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsihi Hilol. Toshkent.: Sharq. 2008

¹¹ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsihi Hilol. Toshkent.: Sharq. 2008

muhabbat uyg'otgan. Qolaversa, mavlid marosimlarida bolalarga sovg'a ulashish, ularga bu kunning ahamiyatini uqtirish ishlari ham ularning onglarida chuqur iz qoldirgan.

6.Rasulullox sollallohu alayhi vasallamning sunnatlariga ergashishni jonlantirish. Bu oldingi maqsadga uzviy bog'liq. Chunki inson biror kishi haqida yaxshi gaplarni tinglasa, uning fazilatlarini bilsa, qalbida unga nisbatan muhabbat uyg'onadi, uni yaxshi ko'rib qoladi. Borib-borib unga taqlid qilishga, ergat shishga oshikadigan buladi.

7.Rasulullox sollallohu alayhi vasallamning muhabbatida yongan oshik kalblarga bir yupanch va taskin bolishi uchun. Mavlid marosimlarida ko'pincha shunday kishilar ishtirok etar va ushbu majlisda tashnaliklarini biroz qondirar edilar. Ular o'zarining Mahbublarini yodga olib, shavqu zavqqa to'lib-toshadilar.

8.Rasulullox sollallohu alayhi vasallamga ummatlik ahdini esga solish, yangilash mazmuni. Mavlid marosimida Rasululloh sollallohu alayhi vasallamni ko'rok eslash orqali u zotga ummatlik tuyg'usini ruhiyatimizda yangilash bilan u zotga ummatlik ahdini ham xotirlash buladi.

9.Mavlid shodiyonasi uchun beva-bechoralarga, Mo'min-musulmonlarga¹² taom ulashish. Mavlid marosimlarida qatnashchilarga ziyofat uyushtirish, bechorahollardan xabar olish mavlid marosimlarining belgilaridan biriga aylangan. Bizdagi mavlid marosimlaridagi ustunliklar.

Agar razm solib qaralsa, yurtimizdagi utgan ulamolarimizning mavlidni juda xam yaxshi tarzda, shar'iy asosda yo'lga qo'rganlarini ko'rish mumkin.

1. Bizda mavlid kuni hayit kabi bayram qilib olinmagan. ko'pchilik qarshi tomonning fikri ayni shu nuqtaga qaratilgan.

2. Mavlid kunini xoslamay, shu oyni, ba'zi joylarda keyingi uch oyni ham ushbu yigin uchun munosib deb bilishgan. Bu haqda yuqorida batafsil to'xtalib o'tdik.

3. Mavlid yig'inlarida kech qanday noshar'iy ish yo'q ayollar va erkaklarning aralashishi, behuda o'yin-kulgi, madhda haddan oshish va boshqa tanqidga uchragan ishlarning birortasi bizdagi mavlid yig'inlarida kuzatilmaydi. Ayrim joylarda bu kabi holatlar bo'lgan. Ba'zi bir o'zini tasavvuf ahli deb tanishtirgan johillar ana shunday noshar'iy ishlarni qilishgan, natijada mavlid haqidagi qarashlarning o'zgarishiga, mavlid amalining qoralanishiga sabab bo'lishgan.

4. Mavlid asarini tanlashda eng mo'tabar asarlar tanlangan. Zaif, ortiqcha mubolag'ali gaplarga uchilmagan. Misol uchun, Ja'far Barzanjiy rahmatullohi alayhning "Mavlid" olaylik. Avvalo, muallifning o'zi ilm, taqvo va zuhdga yuksak odam bo'lgan. O'z davrida Madinada shofe'ylarning qozisi bo'lgan. Madina haramida "Sahihull Buxoriy"dan dars bergan. Shu bois, asarga ham asosan ilmiy qiymatga ega bo'lgan ma'lumotlarni kiritgan.

5. Mavlid marosimlariga kech qanday musiqa aralashmagan. Ko'p joylarda mavlid marosimlarida shariat doirasidagi kuylar bilan nashida aytish, do'mbira chalib, mavlidni e'lon qilish kabi holatlar hozir ham bor. Bunga ba'zi ulamolar ruxsat berishgan bu ishni shar'an durust bo'lgan darajada amalga oshirishga shar'iy dalillar topilsa-da, yuragimiz ulamolari ehtiyot yuzasidan bunga ham yo'l qo'yishmagan.¹³

Bizdagi mavlid marosimlaridagi mazkur xususiyatlarni taammul qilar

¹² Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. Toshkent.: Sharq. 2008

¹³ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. Toshkent.: Sharq. 2008

ekanmiz, o'tgan ulamolarimizning naqadar ilmu taqvoda mustahkam, shariat hududlarini qattiq tutgan buyuk insonlar bo'lganining yana bir bor guvohi bo'lamiz, haqlariga tahsin aytamiz. Alloh utgan barcha azizlarimizni o'z rahmatiga olsin!

Mavlid zakida e'tibor berish kerak bo'lgan nuqtalar.

Mavlid haqidagi tushunchamiz tugal bolishi uchun bu boradagi ayrim nuqtalarga alohida e'tibor qaratish lozimdir.

1 - Mavlid aqidaga bog'liq amal emas. Ya'ni mavlid qilishni joiz yoki nojoiz deyish kishining aqidasi belgilamaydi. Mavlidni joiz yoki nojoiz deyish kishini Islom millatidan yoki ahli sunnaning safidan chiqarmaydi. Mavlidni joiz yoki nojoiz deb bilgan kishini turli laqablar bilan atash, haqorat qilish, kamsitishga hech kimning kasi yo'q, bu mutlaqo durust emas. Shar'iy mezon shuni taqozo qiladi, chunki ayrim olamlarning ijtihodlari bu ishni joiz deyishga undagan bo'lsa, ayrimlarning ijtihodi uni nojonz deyishga olib kelgan bo'lishi mumkin, xar ikki tarafda ham ahli sunnanng yirik ulamolari bor, Mukimni, bu masalada ixtilof qilmaslik, balki maqsadlarni birlashtirish lozim.

2. Mavlid fiqhi mazhablarga ham bog'liq emas. Ya'ni to'rtala fiqhki mazhab ulamolarni ichinda mavlidni, yoqlaydiganlar ham, yo'qlamaydiganlar ham bor. Ammo yo'qlamaydiganlar doimo ko'pchilikni, asosiy qismni tashkil qilib kelgan.

3. Mavlid marosimi ma'lum bir asarga bog'liq emas. Ha, mavlid yig'ini mavjud emas ma'lum bir kitobga qaydlangan majlis emas. Ulamolarimiz mavlid marosimlarida ma'lum bir mavlid asari bilan cheklanmaslikni maslahat beradilar. ¹⁴Chunki odamlar mavlid desa, faqat o'sha falonchining asari o'qilishi kerak, degan tushunchaga borib qolishlari yoki o'sha asarni muqaddaslashtirib yuborishlari, Qur'onga o'xshatib kuyishlari mumkin" "falon marosimda faqat falon asar o'qilishi kerak", deb, buni mahkam tutish unga shar'iy tus berish hisoblanadi, iltizom sanaladi. bir narsani o'ziga lozim qilib olish degan ma'noni bildirib, shar'iy istilohda kishining shariat lozim qilmagan ishni o'ziga lozim tutib olishi, doimiy qilish kerak deb bilishi va qilishi, natijada odamlar shu ishni shar'iy talab deb tushunib olishga aytiladi. Bu makruhi taxrimiy, karom darajasidagi makruh ishdur, chunki bunda dinga qo'shimcha kiritish bor. Bu eng yomon bid'atdir. Bularning barchasi shariat kazir bulishni talab qilgan ishlardir. Mavlid faqatgina jamoaviy ravishda, masjid madrasa yoki boshqa jamoatchilik joylarida o'tkaziladigan ish emas. Mavlidni xar bir xonadon axdi uy ichida, oila davrasida ham o'tkazishi mumkin. Bu albatta, kelajak avlodning ta'lim-tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bahona ularga Rasululloh sollallohu alayhi vasallamni ko'proq tanishtirib olamiz. Chunki bugungi kunda aksar musulmon farzandlari turli multfilm va boshqa tomoshalar orqali aslida mavjud bo'lmagan turli afsonaviy qahramonlarni tanib, o'shalardek bo'lishga intilmoqda. Aslida esa bizyushg xar sohada hammaga o'rnak bashariyatning gultoji hisoblanadi hisoblangan eng komil inson Nabiy sollallohu alayhi vasallam boshliq voqeiy qahramonlarimiz yetarli va ko'p.

Mavlid odoblari

Mavlid marosimlari o'tkazishni mustalab deb aytgan ulamolarimiz kadimdan bu ishning joiz bo'lishi, savobli bo'lishi uchun bir qator shartlarga, odoblarga amal qilish lozimligini ta'kidlaganlar. Ayniqsa, mavlid marosimlari o'tkazish keng urf bo'lib, ularda turli tasarruflar

^{14 14} Hasanxon Yaxyo Abdulmajid.Mavlud.Sayyid Ja'far Ibn Hasan Barzanjan.-T.: "HILOL-NASHIR", 2022.

yuzaga kelgach, ayrim ulamolar ushbu yig'inlarni o'tkazishga doir odob-ahloqlarni bayon qilishga jiddiy harakat qilishgan va bu haqda alohida risolalar xamr yozishgan. Biz hozir ulardan uz mintaqamizga tegishli masalalarni eslab o'tmoqchimiz.

1. Mavlid o'tkazishda niyatni to'g'ri qilish kerak. Shuhratparastlik, ko'ngilxushlik yoki yana qandaydir manfaatlar bo'lmasligi lozim.

Mavlidni uyushtiruvchi kam, o'tkazuvchi ham. unda qatnashuvchi kam niyatni to'g'ri qilish kerak, mavlidni maqsadlarini qasd qilish kerak. Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning siyratlarini o'rganish, u zotning ilohiy tuhfa o'laroq, insoniyatga berilgan buyuk ne'mat ekanlarining shukronasini va shodligini izhor etish lozim, bu ma'noda ayniqsa mavlidchilar peshqadam bo'lishi, bosh bo'lishi kerak. ¹⁵Zero, ulardagi majlisida ruhiyat hukm suradi. Uning niyatlari sof bulsa, maqsadlari yuksak bulsa, qalblari turli gilli-gashlardane pok bo'lsa, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga bulgan muxabbat bilan tulib-toshib tursa, ana shunday mavlid marosimlayi ri nijoyatda guzal utadi; maksadlar buladi o'rib olgan.

2. Mavliddan ko'zlangan maqsadni ro'ybga chiqarish. Ularning asosiylari yuqoridada sanab utildi. Har bir bir Majlisning sharoiti o'ziga xos buladi. Mavlidni o'tkazuvchilar jar bir majlisda u yerdagi vazirdan, imko niyatdan kelib chiqib, mavliddan ko'zlangan maqsadlarni ro'ybga chiqarishi lozimdir. Misol uchun, mavlid asarlaridagi ma'nolarni yig'in qatnashchiliriga yetkazish kabi.

majlisni Qur'on tilovati bilan o'rganish va Majlis asnosida ko'prok salavot aytishga intilish.

4. Turli larv va bo'lmag'ur odat, gap-so'zlardan saqlanishh lozim. Imkon qadar musika aralastirmasliq, hususan, erkaklar yiginlaridada.

5. O'kiladigan mavlid kitobi yoki sherlar Majlisi katnashchilari tushunmaydigan tilda bulsa, mavlid xonlar ularini tarzima kilib berishi kerak. Chunki mavlid marosimlaridan kuzlangan maksad uzi shu. Zotan, Qurondan boshka ukilishining uzi uchun savob beriladigan kalom yuk. Shu bois, mavlidni kerakli saviyada utkazish lozimdir.

6, Mavlidni Qur'on tilovati bilan bir xil ijro etmaslikk kerak, farkli bulishi lozimdir. Aks xolda vaxt o'tishi bilan savodsiz odamlar uni Qur'on bilan bir xil narsa deb tushunib qolishlari mumkin. Bu esa xatarli holatdir, bunga yul quyish mumkin emas.

7. Mavlid asarlarining ayrimlarini: nazm. saj'kofiyadosh suzlar bilan yakunlangan nasriy janrdagilarini guzal oxangda ijro etish xam mavliddagi ma'nolarninglalblarga kirib borishiga, zexnga yaxshi singishiga, mavlid yiginiga uzgacha rux baxsh etishga xizmat kiladi. Misol uchun, shunchaki bir gapni oddiy suzlashuv uslubida etkazilgandan kura oxang bilan ijro kilinsa, ta'sirlirok bulishi hech kimga sir emas. Bu insoniy tabiat, Allox yaratgan xilkatdir. Qur'oni Karimni oxang bilan ukishga targib qilinishing zamirida shu xikmat xam bor.

8. Mavlid marosimini rang-barang suratda utkai zish. Uni Nabiy sollallohu alayhi vasallamning siyratlariga bag'ishlangan, u zotga bulgan shavqu zavqning

namunasi bo'lgan, iymonu muxabbatni charxlaydigan turli she'rlar, maqolalar, va'zlar bilan utkazilsa, maksadga muvofik buladi. Xususan, kishilar zerikmasliklari uchun marosimni xar gal turlicha utkazish kerak. She'r, makola xamda va'zlar Majlis katnashchilarining tilida yangrasa, yanada manfaatli buladi.

^{15 15} Hasanxon Yaxyo Abdulmajid.Mavlud.Sayyid Ja'far Ibn Hasan Barzanjan.-T.: "HILOL-NASHIR", 2022.

Misol uchun, bir yiginda Rasulullox sollalloxu alayli vasallamning tavalludlari, boshkasida u zotning bolaliklari, yana birida yigitlik davrlari va uylanishlari jakida, shuningdek, paygambar bulishlari xodisasi va uning lakikatlari, ilk da'vatlari, xijratlari, Madina kayoti, Xudaybiya sulxi, Makka Fatxi, vafotlari, eb-ichitshlari, yurish-turishlari, siyratu shamoyillari kabi mavzularni aloxidadan yoritib borish kerak, shu bilan birga, bir yiginda Xazrat Navoiy rakmatulloki alaykning na'tlaridan, boshkasida Majzub alaykir-Rakmaning gazallaridan, yana birida Xaziniy domlaning she'rlaridan ukib eshitgirilsa va izoxlab berilsa, ayni muddao buladi. Barzanjiy mavlididan xam fakat usha beshaturtta atrni takrorlavermay, boshka bandlarini xam o'qib izohab berilsa, odamlarda qiziqish ortadi va muallifning xam maksadlari xosil bo'ladi.

9. Mavlid yig'inida tilovat ham, sulbat ham, xasida va she'rlar ham siyratga oid bo'lishi, Rasulullox solallohu alayhi vasallamga muxabbat izhori bo'lishi maqsadga muvofiq.

10. Ortiqcha takalluflardan, sarfu xarajatlardan saqlanish kerak. Mavlid sharofatiga yozilgan dasturxonlar xam betakalluf, imi-jimida bulishi, dabdaf bali bo'lmasligi lozim. Chunki ortiqcha sarf-xarajat isrof xisoblanadi, mavlidni ilmiy-majlislikdan ovkatxo'rlik ziyofatiga aylantirib yuboradi va urtahol kishilarning mavlid marosimlari o'tkazishlariga halal beradi.¹⁶

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-apreldagi "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" PF-5416-son Farmoni. // <http://www.lex.uz>
2. Abdulazim Ziyouddin. Siz payg'ambarni ko'rganmisiz Movarounnahir. 2007
3. Abdurrahim Molikiy Jurjoviy. Talhinus-sanji sharhu mavlidil imomil Barzanajiy. Misr. 1903.
4. Durmush. Arab adabiyotida mavlud. Islom ensiklopediyasi. – T.: 2004.
5. F.Ko'ksal. Ilmiy maqola. Turkiy. 2011
6. Hazrat Ali ibn Abu Tolib. Devon. Movarounnahr. 2005.
7. Hasanxon Yaxyo Abdulmajid. Mavlud. Sayyid Ja'far Ibn Hasan Barzanjan. -T.: "HILOL-NASHIR", 2022
8. Hofiz Abu Fazl Abdurrahim ibn Husayn Zayniddin Iroqiy. Al Mavlidul haniy fil mavlidisaniy. U haqida 2009 yilda "Dorus-salom" matbaasida chop etilgan nashrining kirish qismi nashirga tayyorlovchi Umar ibn Arabiy A'miriy tarafidan berilgan ma'lumotlar
9. Jaloliddin Suyutiy. Al-Hoviy lil fatovo fil fiqhi va ulumit-tafsiri val hadisi val usuli van naxvi val I'robi va soiril funnun. 1 juz. Dolrul kutubil ilmiya. 2000.
10. Muhammad Aliy ibn Hasan Molikiy. Al Hadyutommu fii mavridil-nabaviy va moutida fii hi vinal qiyom. 2000
11. Muhammad ibn Ismoil Buxoriy. Doru Ibni Kasr. Sahihul Buxoriy. Bayrut. 1987.
12. Muhammad ibn Iyso Termiziy. Shamoili Muhammadiya. -Bayrut.: Musassatul kutubus-saqafiya. 1987.
13. Qur'oni Karim

¹⁶ Hasanxon Yaxyo Abdulmajid. Mavlud. Sayyid Ja'far Ibn Hasan Barzanjan. -T.: "HILOL-NASHIR", 2022.

-
14. Shayx Muhammad Navaviy. Madorijus-su'ud ila iqtisoil burud. "Jamoliya" matbaasi. Bayrut. 1293
 15. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. Toshkent.: Sharq. 2008.